

**O‘ZBEKISTON YOSHLARINING KUNDALIK TURMUSH TARZI**

O‘zMU Tarix fakulteti Tarix yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Orzubek O‘ralov e-mail: orzubekurolov06@gmail.com

[Tel: + 998 – 99 – 500 – 75 – 68](tel:+998995007568)

O‘zMU Tarix fakulteti Antropologiya va etnologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi **Ne‘matullayev Bobur**

e-mail: Nematullayevbobur90@gmail.com

[Tel: +998-93-871-36-35](tel:+998938713635)

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston yoshlarining kundalik turmush tarzini ko'p qirrali jihatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Zamonaviy texnologiyalar ta'siri, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ta'lim intilishlari, shuningdek, an'anaviy qadriyatlar va madaniy me'yorlarning yoshlar hayotiga ta'siri chuqur o'rganiladi. Maqolada shahar va qishloq yoshlari turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlari, ularning bo'sh vaqtlarini o'tkazish usullari, ijtimoiy aloqalari va kelajakka bo'lgan munosabati kabi masalalar batafsil yoritiladi. Tadqiqot natijalari yoshlar siyosati va ijtimoiy dasturlarni takomillashtirishga yordam beradigan foydali tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy texnologiyalar ta'siri, an'anaviy qadriyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, shahar va qishloq yoshlari

Аннотация. Данная статья посвящена анализу многогранных аспектов повседневной жизни молодежи Узбекистана. Подробно исследуется влияние современных технологий, социально-экономических факторов, образовательных устремлений, а также влияние традиционных ценностей и культурных норм на жизнь молодых людей. В статье подробно описаны особенности образа жизни городской и сельской молодежи, способы проведения свободного времени, социальные отношения, их отношение к будущему. Результаты исследования завершаются полезными



рекомендациями, которые помогут улучшить молодежную политику и социальные программы.

Ключевые слова: Влияние современных технологий, традиционные ценности, социально-экономические факторы, городская и сельская молодежь.

Abstract. This article is devoted to the analysis of the multifaceted aspects of the daily life of the youth of Uzbekistan. The impact of modern technologies, socio-economic factors, educational aspirations, as well as the influence of traditional values and cultural norms on the lives of young people is studied in depth. The article covers in detail the specific features of the lifestyle of urban and rural youth, their ways of spending their free time, social connections and attitudes towards the future. The results of the study are concluded with useful recommendations that will help improve youth policy and social programs.

Keywords: Impact of modern technologies, traditional values, socio-economic factors, urban and rural youth

KIRISH

O'zbekiston jamiyatining muhim qismini tashkil etuvchi yoshlar avlodi bugungi kunda globalizatsiya, texnologiyalar taraqqiyoti va jadal ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davrida yashab, rivojlanmoqda. Ularning kundalik turmush tarzi, qarashlari va intilishlari mamlakatning kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu maqolada O'zbekiston yoshlarining kundalik turmush tarzini har tomonlama tahlil qilishga harakat qilinadi. Bu tahlil faqatgina statistika va umumiy tasavvurlarga tayanib emas, balki yoshlarning o'zlari bilan olib borilgan suhbatlar, kuzatuvlar va mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili asosida amalga oshiriladi.

Avvalo, yoshlarning ta'lim olish jarayoniga e'tibor qaratiladi. Oliy ta'limga kirish imkoniyatlari, ta'lim sifati, kasb tanlashdagi qiyinchiliklar va yoshlarning bilim olishga bo'lgan munosabati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, professional tayyorgarlik va mehnat bozoriga kirish masalalari ham muhim o'rin tutadi. Yoshlarning ish bilan bandligi darajasi, ish topishda duch keladigan muammolari va kelajakdagi rejalari chuqur o'rganiladi.



Bundan tashqari, maqolada yoshlarning ijtimoiy-madaniy hayoti, bo'sh vaqtlarini o'tkazish usullari va ijtimoiy aloqalari yoritiladi. Zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining yoshlar hayotiga ta'siri, ularning do'stlari va yaqinlari bilan munosabatlari, sevimli mashg'ulotlari va qiziqishlari kabi jihatlar batafsil ko'rib chiqiladi. Shahar va qishloq yoshlari turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlari, ularning an'anaviy qadriyatlarga munosabati va millatga mansublik hissining shakllanishi ham alohida e'tiborga olinadi. Maqolada shuningdek, yoshlarning siyosiy faolligi, jamoat ishlariga qiziqishi va ijtimoiy mas'uliyat hissi o'rganiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston yoshlarining kundalik turmush tarzini o'rganish jarayonida Jahon bankining statistikalari, UNICEFning yoshlar bo'yicha olib borilgan turli tadqiqotlari ham foydalanilgan. Jahon bankining bergan statistikalarida O'zbekiston yoshlarining iqtisodiy holati pul va moliyaviy ko'rsatkichlari yoritib berilgan¹.

UNICEFning mamlakatimizda olib borgan tadqiqotlarida jumladan, "Youth Uzbekistan : Challenges and Prospects"da mamlakatimiz yoshlarining umumiy holati tasvirlab berilgan². Unda bugungi yoshlarning muommolari va imkoniyatlari ta'kidlab o'tilgan. Shu bilan birga, tashkilotning "Effects of migration on children of Uzbekistan" tahlilida, mamlakatimizdagi migratsion holatning yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarziga ta'sirlari obyektiv jihatdan yoritilgan³.

Tahlil va naijalar.Bugungi kunda O'zbekiston aholisining qariyb 60%ga yaqinini 16-30 yosh atrofidagi yoshlar tashkil etadi. Bu esa mamlakatimizning mutlaq eng katta kuchi sanaladi. O'zbekiston yoshlarining hayoti boshqa sobiq Ittifoq davlatlarnikidek, keskin o'zgarishlarga uchragan holda kechmoqda. Eng avvalo, bu holat musttaqillikning qo'lga kiritilishi va yangi tuzumlarning almashinuv jarayonidan boshlandi. Mustaqil davlatlarning rejalashtiruvchi iqtisodiy tizimdan, tezlik bilan bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tishi, mamlakatlarda yuz bergan "Shok terapiya"lari va hukumatlarning almashinuvi. Mafkuraviy qarama-qarshilik

¹ Youth employment in Uzbekistan. US. Washington, 2021. \ \ <https://documents1.worldbank.org/>

² Youth Uzbekistan : Challenges and Prospects Tashkent,2020. - 150 p

³ Effects of migration on children of Uzbekistan \ \ <https://www.unicef.org/uzbekistan/media> . - 15 p




va xilma-xilliklar oqibatlarini sobiq Ittifoq davlatlari yoshlarining taqdirida aks etdi. Shu bilan birga 70 yil davomida shakllangan dinga qarshi mafkura mexanizimining buzilishi oqibatida diniy tarbiyaning sayozligi oqibatida yosh davlatlar, ayniqsa kavkaz va Markaziy Osiyo davlatlarida terrorizm va ekstremizmga jalb qilish va yoshlarning mazkur ishlar aralashib qolishiga sabab bo'ldi. Bu holat esa, mintaqlarda bir qancha teraktlarning sodir bo'lishiga olib keldi. Jumladan bunday keskinlik sharpalari O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Bir qancha teraktlar, jumladan, 1999 – yilda Toshkentda, 2000-2002- yillarda Surxondaryo va 2005-yildagi Andijon voqealari mamlakatdagi yoshlar masalalarini ko'rish va ularni boshqarish bo'yicha tubdan o'zgartirilgan tizimni yo'lga qo'yishni talab etdi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotga zamonda ham yoshlarning kundalik turmush tarzi va u bog'liq masalalar hali ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. O'zbek yoshlari kundalik hayotida ancha-muncha ochiq sanaladi. Yoshlarning asosiy qismi suhbatlashish ochiqqligi bilan ajralib turadi. O'zbek yoshlarining asosiy qismi kundalik suhbatlari ayrim davlatlarnikidan keskin farq qiladi. Misol uchun, kundalik hayotda o'zbek yoshlari, siyosat, bolalik va kundalik hayot va kelajak haqida gaplashishni xush ko'radilar[1.112]⁴. Chekka joyda yashab keyin markaz shaharlarga kelib o'qib yoki ishlab yurgan ko'pchilik yoshlar esa o'zlarining bolaligi va o'z viloyati, ayrim holda esa shevalari haqida suhbatlashishi ko'p uchraydi. Bugungi texnika rivojlangan zamonda o'zbek yoshlarining turli chatbotlar va ijtimoiy tarmoqlarda ham tanishuvlari keskin oshgan. Ayniqsa, 2020-yildagi karantin davrida bu tendensiya tayanada oshib ketdi. Va bu vaqt yoshlar uchun qiziqarli tajriba vazifasini o'tadi. Til o'rganishga kirishgan va til o'rganish jarayonidagi yoshlar turli tarmoqlarda chet ellik yoshlar bilan tarmoqda suhbatlashishni olib borish mumkinligi va bu esa tilni o'rganish teligini oshirishi mumkinligini sinab ko'rishdi va bu juda muvoffaqiyatli bo'ldi. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoq va uyali aloqa vositalaridan foydalanish darajasi ham alohida mavzu sanaladi. Kompyuter bilan shug'illanish bilan bog'liq holatlar, qishloq va shaharlarda keskinlik bilan farqlanadi. Qishloq yoshlarining 37.5% kompyuter

⁴ Youth Uzbekistan : Challenges and Prospects Tashkent, 2020. – P 112

savodxonligidan xabari yo'q. Biroq bu ko'rsatgichlar yildan yilga qisqarib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi, 16-18 yoshda bo'lsa, bu ko'rsatgich bugungi kunda, maktab yoshida ya'ni 13-15 yosh atrofida bo'lib bormoqda⁵.

Yoshlarning ta'lim olishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O'zbekistonda savodxonlik darajasi deyarli 100 %ni tashkil etadi (1-jadval) ⁶.



1-jadval. *O'zbekistonda savodxonlik darjasi*⁷

Savodxonlik darajamiz baland bo'lgani bilan kitobxonlik darajasi shunga mutanosibmikan? degan savol tug'ilishi tabiiy. Keling dastavval dunyo xalqlarining kitobxonlik darajasi statistikasi bilan tanishib chiqamiz.

Dunyo bo'ylab kitob o'qish bo'yicha statistik ma'lumotlar cheklangan va muntazam ravishda yangilanmaydi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yilda GfK xalqaro tadqiqot instituti tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, eng kitobxon millatlar quyidagicha aniqlangan:

1. Xitoy – so'rovda qatnashganlarning 70% har kuni yoki haftada kamida bir marta kitob o'qishini bildirgan.
2. Rossiya – 59%.
3. Ispaniya – 57%.

Bundan tashqari, NOP World xalqaro reyting agentligi ma'lumotlariga ko'ra, haftasiga eng ko'p kitob o'qiydigan mamlakatlar quyidagicha:

⁵ Youth Uzbekistan : Challenges and Prospects Tashkent, 2020. – P 112

⁶ Uzbekistan UZ: Literacy Rate: Youth: % of People Age 15-24 \ \ <https://www.ceicdata.com>

⁷ Uzbekistan: Youth literacy rate, ages 15-24 \ \ <https://www.theglobaleconomy.com/>



1. Hindiston – haftasiga 10,7 soat.
2. Tailand – 9,4 soat.
3. Xitoy – 8 soat.
4. Filippin – 7,6 soat.
5. Chexiya – 7,4 soat.
6. Rossiya – 7,1 soat.
7. Shvetsiya – 6,9 soat.
8. Fransiya – 6,9 soat.
9. Vengriya – 6,8 soat.

Endi yurtimizdagi statistik ma'lumotlarga to'xtalsak. O'zbekistondagi yoshlar orasida kitob mutolaasi darajasi individual xohish va turmush tarziga qarab farq qiladi. Sotsial so'rovnoma natijalariga ko'ra quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tishimiz mumkin.

1. Aktiv kitobxon yoshlar:

Kundalik 20-30 bet yoki 1-1,5 soat o'qishga vaqt ajratishi mumkin.

Ular asosan universitet talabalari, ilmiy ish bilan shug'ullanadiganlar yoki kitobni qiziqish sifatida ko'ruvchi guruhni tashkil qiladi.

2. O'rtacha darajada o'quvchilar:

Haftasiga 1-2 soat yoki taxminan 50-100 bet o'qiydi.

Bu guruh asosan maktab o'quvchilari va ba'zi yosh xodimlardan iborat.

3. Kam kitob o'qiydigan yoshlar:

Ular mutolaaga umuman vaqt ajratmaydi yoki faqat majburiy darsliklarni o'qish bilan cheklanadi.


Ushbu guruh ko'pincha ijtimoiy tarmoqlarda ko'proq vaqt sarflaydi. Bu statistikaning paydo bo'lishiga bir nechta sabablarni keltirishimiz mumkin: Masalan Ijtimoiy tarmoqlar va texnologiya ta'siri: Yoshlar ko'pincha vaqtlarini internet, video o'yinlar yoki qisqa formatdagi kontentga sarflaydi.

Bundan tashqari qishloq joylarda sifatli kitoblarning yetishmasligi yoki narxlar yuqoriligi kitobxonlikka ta'sir qiladi. Yana bir asosiy sabab bu o'quvchilar o'rtasida kitob o'qishni rivojlantirish uchun targ'ibot yetarli emas.

Kitobxonlik darajamizni yurtimizdagi kutubxonalar soni va nashr etilayotgan kitobar sonidan ham aniqlash qiyin emas. Masalan, 2000-yilda mamlakatda

6 027 ta kutubxona faoliyat yuritgan bo'lsa, 2005-yilga kelib ularning soni 5892 taga yetganini, 2010-yilda esa 2809 taga, 2015-yilda bu ko'rsatkich birozgina ko'tarilib 2914 taga, 2020-yilda 400 taga va 2021-yilda 402 taga yetganini ko'rishimiz mumkin. (2-jadval)

To'g'ri kutubxonalar kamayishiga kitoblarning elektronlashuvi sabab deyishimiz mumkin lekin yuqorida kitobxonlik darajamizga oid keltirgan ma'lumotimiz bu ma'lumotimizga zid kelishi juda achinarli holat hisoblanadi.



2-jadval. O'zbekistonda kutubxonalar sonining kamayish ko'rsatkichi

Shuningdek, yoshlar orasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida, ishtirokchilarning 60 foizi vaqti-vaqti bilan, 24 foizi har kuni kitob o'qishini, qolgan 16 foizi esa umuman mutolaa qilmasligini bildirgan. Kitob nashrlari soni ham sezilarli kamaygan. 30-40 yil avval kitoblar 50-100 ming nusxada, eng kami 10 mingta chop etilgan bo'lsa, hozirgi kunda bu ko'rsatkichlar ancha pasaygan.

Shu bilan birga, mamlakatda kitobxonlikni rivojlantirish va targ'ib qilish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, 2017-yilda Prezidentning "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Umuman



olganda, O'zbekistonda kitobxonlik darajasini oshirish uchun davlat tomonidan qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda, ammo aniq statistik ma'lumotlar yetishmasligi sababli, kitobxonlik darajasini boshqa mamlakatlar bilan solishtirish qiyin.

Bundan tashqari 2009-yildan boshlab smartfonlarning dunyo bo'ylab ommalashuvi va ular bilan ijtimoiy tarmoqlar keng tarqalishi insonlarning bu kabi chalg'ituvchi omillar bilan mashg'ul bo'lishlari uchun keng yo'l ochib berdi. Keling dastavval dunyo yoshlari keyin esa yurtimiz yoshlari qancha vaqtini smartfonlarni qarshisida o'tkazayotganligining statistikasi bilan tanishib chiqsak. Dunyo bo'ylab odamlar smartfonlardan foydalanish uchun kuniga o'rtacha 3 soatdan ortiq vaqt sarflashmoqda. Masalan, 2019-yilda AQShda kattalar kuniga o'rtacha 3 soat 30 daqiqa mobil qurilmalardan foydalangan. Shuningdek, 18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan aholi guruhi oyiga o'rtacha 90,6 soatni smartfon ilovalarida, 34,7 soatni planshet ilovalarida o'tkazgan. Biroq 2020-yildan keyin yoshlarning larning smartfonlardan foydalanish vaqti sezilarli darajada oshdi. Bunga asosiy sabab qilib dunyo bo'ylab tarqalgan COVID-19 ni olishimiz mumkin. Chunki aynan shu tufayli insonlar uylaridan chiqmasdan ma'lum bir izolyatsiyalar qurshoviga tushib qoldi va ularni ovituvchi birdan bir narsa bu smartfonlar bo'ldi. Masalan, 2021-yilda global miqyosda odamlar kuniga o'rtacha 4,8 soatni mobil ilovalarda o'tkazganlar. Bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 30% ga oshgan. Ayniqsa, Indoneziya, Braziliya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda bu raqamlar kuniga 5 soatdan oshgan.

Yurtimizda esa bu ko'rsatkich karantingacha 2,5 va 3 soat oralig'ida bo'lsa karantindan keyin bu ko'rsatkich ikki barobar ko'paygan. Bu ko'rsatkich insonni shunchaki daxshatga soladi ya'ni hozirda O'zbekistonning asosiy qismini tashkil etadigan yoshlar kunining deyrli 4/1 qismi smartfonlar qarshisida o'tmoqda.

Hozirda yoshlarning bir qismi hunar va professional ta'limni tanlasa, asosiy qismi davlat tashkiloti va oliy ta'limni, yana bir qismi migrant sifatida chet elga ishga ketishadi. O'qish va ta'lim olish yoshlarning katta qismini davlat ishida ishlagan holda karyera qurish jamiyatimizda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.



Qariyb 74 % yoshlar universitet yoki boshqa oliygohlarda o'qishni tanlashmoqda⁸. Bu esa, diplomlilar sonini oshirib raqobat muhitini yaratadi. Shuningdek, yoshlar tomonidan faqat oliygoh va diplom masalalari emas, balki turli zamonaviy kasblar, IT, SMM va boshqa ishlar uchun ham ta'lim olayotganlar talaygina. Bu esa, mamlakatimizning raqamli iqtisodiyoti va raqamli tizimining rivojlanishiga keng yo'l ochib beradi.

Ishlash va mehnat munosabatlari ham yoshlar o'rtasida turli tafovutlarga ega. Kasb istiqbollari ish tanlashda muhim omillardan biri sifatida yoshlar tomonidan bildirilmaydi. Ko'pgina ishtirokchilar mansab masalalari faqat davlat sektoridagi ishlarga, aniqrog'i, sohaga tegishli deb hisoblashadi. Ish haqining pastligi va ishchi kuchiga talabning zaifligi ish bilan ta'minlanishning asosiy to'siqlaridan biri bo'lib, tushkunlikni keltirib chiqaradi va yoshlar tomonidan to'g'ri deb qabul qilingan qabul qilingan migratsiya omilini rag'batlantiradi⁹. Kam ish haqi va cheklanmagan mehnat talab sifatida qaraladi, va shu omil ishsizlikning asosiy sabablari va migratsiyaga turtki beruvchi omil hisoblanadi. Ish haqi shunchalik pastki, ba'zi hollarda shunday bo'ladi hatto ishga borish xarajatlarini (transport, oziq-ovqat va kiyim-kechak) qoplamaydi. Ish haqi ayniqsa past va mavjud rasmiy ish joylari qishloq va kichik shaharlardagi yoshlar uchun cheklangan. Demak, qishloq yoshlari yo ko'chib ketishadi yoki bir martalik malakasiz ishlar bilan shug'ullanishadi.¹⁰

Mazkur jarayonlar oqibatida esa bugungi kunda yoshlarning aksariyati migratsiyani tanlamoqda. Shu sabablarga ko'ra, mehnat migratsiyasi ko'pchilik yoshlar - asosan yigitlar tomonidan deyarli yagona ishchi sifatida qabul qilinadi. Rossiyada oyiga taxminan 500 dollar, yosh muhojirlar uchun oyiga 350 dan 500 dollargacha maosh to'lanadi.

Bu ko'rsatkich Qozog'iston va Turkiyaga ko'chib o'tishni rejalashtirayotganlar va ko'chib ketishni rejalashtirganlar uchun oyiga taxminan 2000 dollarni tashkil etadi.

⁸ Youth Uzbekistan : Challenges and Prospects Tashkent, 2020. P 112 \\<https://www.unicef.org/uzbekistan/media>

⁹ Youth employment in Uzbekistan. US. Washington, 2021. \\<https://documents1.worldbank.org/>

¹⁰ Youth employment in Uzbekistan. US. Washington, 2021. P 23 \\<https://documents1.worldbank.org/>



Ijtimoiy stereotiplar va madaniy me'yorlar yosh ayollarning ishtirokiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ishtirokchilarining fikriga ko'ra ko'pgina yosh oilalarda, ayollar ishlashiga ruxsat berilmaydi. Ularning asosiy funktsiya sifatida uyni saqlash, bolalarni parvarish qilish va tarbiyalash, keksa oila a'zolariga g'amxo'rlik qilish va shunga o'xshash maishiy me'yorlar ko'riladi. Agar yosh ayol yaxshi ta'minlangan bo'lsa, unda u ishlashga muhtoj emas va ishlashi kutilmaydi ham.


Korxonalarda ishlash ayollarning obro'si va ma'naviyatiga putur yetkazishi haqida ham umumiy fikrlar mavjud. Ushbu ijtimoiy va madaniy me'yorlar ishchi kuchidagi katta gender farqini tushuntirishga yordam beradi.

O'zbek yoshlarining hayotida muhim jarayonlardan biri bu oila qurishdir. O'zbek oilalarida nikoh yoshi qonun bo'yicha, 18 yosh qilib belgilangan. O'rtacha qizlarda nikoh yoshi, 18-22 yosh atrofida bo'lsa, o'g'il bolalarda bu yosh 20-24 ba'zan 25 yoshgacha cho'ziladi. Bu holat butun O'zbekiston uchun bir xil emas, chunki mamlakat aholisining qariyb 50 %i qishloqlarda yashaganligi sababli ham turmush yoshi bilan bog'liq vaziyat nisbatan boshqacha. Statistika ko'ra yosh turmush qurish 4787 ta bo'lsa, shuning atigi bittasi o'g'il bolalar bilan bog'liq. Qolgan barchasi qizlar bilan sodir bo'lgan. Bunga bosh omil qishloqqa xos hayot tarzi yoki, qon-qonga o'tib ketgan "stereotip"lar sanaladi¹¹. Bu jarayonlar asosan chekka qishloqlarda yuz beradi. Balog'atga yetmaganlar turmushini qisqartirish uchun mamlakatimizning chekka hududlarida ham yoshlarni kasb yoki hunar bilan ta'minlash ota-onalar bilan erta turmush qurish to'g'risida targ'ibot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi

Yoshlarning kayfiyati ham kundalik turmush tarzida muhim jihat sanaladi. O'zbek yoshlarining asosiy qismi (67 %) juda baxtli sanalsa, 30.2%i ba'zan baxtli sanaladi. Depressiya va tushkunlik holati esa nisbatan pastligi bilan izohlanadi (2-jadval.)¹². Yoshlarning depressiyaga tushmaslik holatiga turli jihatlar ta'sir qiladi. Masalan, diniy e'tiqod va ota-onaning umidi kabi tushunchalar katta ta'sir ko'rsatadi.

¹¹ Effects of migration on children of Uzbekistan \ <https://www.unicef.org/uzbekistan/media> . P 12

¹² Youth Uzbekistan : Challenges and Prospects Tashkent, 2020. P 125\ <https://www.unicef.org/uzbekistan/media>



2-jadval. O'zbek yoshlarining depressiya va xafa bo'lish indeksi

Doimiy depressiyalar esa o'ziga shikast yetkazish yoki o'z joniga qasd qilish darajasini oshiradi. 2008-yildan beri olib borilayotgan statistikaga ko'ra har 100 ming aholiga 19.6 ta o'z joniga qasd qilish holatlari kuzatiladi va bu ko'rsatkich 2008-yildan beri qariyb 2 baravar o'sgan¹³.

Xulosa. O'zbekiston yoshlari kundalik turmush tarzi murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u globalizatsiya jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va an'anaviy qadriyatlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanmoqda. Ta'lim va ish bilan bandlik, ijtimoiy aloqalar va bo'sh vaqtni o'tkazish usullari, milliy va global madaniyatlarning uyg'unlashuvi – bularning barchasi yoshlarning hayotida muhim ahamiyatga ega. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlar jamiyatning faol a'zolari sifatida o'z o'rnini topishga, ta'lim olishga, professional ko'nikmalarini rivojlantirishga va o'z kelajagini qurishga intilmoqdalar. Ammo, ularning oldida hali ham bir qator muammolar mavjud, jumladan, ishsizlik, ta'lim sifati bilan bog'liq muammolar va ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari.

Kelajakda O'zbekiston yoshlarining salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun davlat tomonidan yoshlarga yo'naltirilgan siyosatni takomillashtirish, ta'lim tizimini isloh qilish, mehnat bozorini tartibga solish va yoshlarning ijtimoiy-

¹³ Youth Uzbekistan : Challenges and Prospects Tashkent, 2020. P 125\ <https://www.unicef.org/uzbekistan/media>



madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish zarur. Shu bilan birga, yoshlarning o'zlari ham faollikni oshirish, o'z qobiliyatlarini rivojlantirish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga intilashlari kerak. Faqatgina davlat va jamiyatning hamkorligi orqali O'zbekiston yoshlari o'zining ulkan salohiyatini to'liq ro'yobga chiqara oladi va mamlakatning yorqin kelajagini quradi.